

YON LEKSEMASINING SEMANTIK-STRUKTUR XUSUSIYATI

Iskandarova Quyoshoy

NavDPI O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti

3-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10408164>

Annotatsiya. Ushbu maqolada “yon” leksemasining semantik-strukturaviy ahamiyati yoritilgan, yon leksemasining sintagmatik ahamiyati, matnda qo‘llanishi, ko‘p ma’nolik xususiyati va yon leksemasi o‘rnida boshqa so‘zlarning qo‘llanishi izohlanadi.

Kalit so‘zlar: “yon” leksemasi, ko‘p ma’noli so‘zlar, omonim so‘zlar, fe’llar, sintagmatik ma’no.

SEMANTIC-STRUCTURAL CHARACTERISTICS OF THE SIDE LEXEMA

Abstract. In this article, the semantic-structural significance of the lexeme "side" is explained, the syntagmatic significance of the lexeme, its use in the text, its polysemous nature, and the use of other words instead of the lexeme are explained.

Key words: lexeme "side", polysemous words, homonyms, verbs, syntagmatic meaning.

СЕМАНТИКО-СТРУКТУРНАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА БОКОВОЙ ЛЕКСЕМЫ

Аннотация. В статье раскрывается семантико-структурное значение лексемы сторона, поясняется синтагматическое значение лексемы сторона, ее употребление в тексте, ее многозначность, а также употребление других слов вместо лексемы сторона.

Ключевые слова: лексема «сторона», многозначные слова, омонимы, глаголы, синтагматическое значение.

Tilning lug‘at tarkibi til qurilishining eng muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Har bir tilning, jumladan, o‘zbek tilining ham lug‘at boyligi, uni qay darajada ekanligi, u yoki bu xalqning shakllanish jarayoni, turmush sharoiti hamda keyingi o‘sish va rivojlanish tarixi bilan bog‘liq. O‘zbek tili turkiy tillar tizimidagi o‘ziga xos til, uning lug‘at tarkibi va grammatic qurilishi ham o‘ziga xos. Har bir leksemani semantik-struktur jihatdan o‘rganar ekanmiz, avvalo bu so‘zga ta’rif berib o‘tamiz. Tilshunoslikda struktura atamasi turli ma’noda talqin qilinadi. Ulardan keng tarqalgani ikki xildir. Birinchisida “struktura o‘zaro bog‘langan va shartlangan munosabatda bo‘lgan elementlardan tashkil topuvchi butunlik tushuniladi. Strukturaga bunday yondashuv o‘rganilayotgan obyektni uni tashkil etgan elementlar o‘rtasida ichki aloqa va bog‘liqliknini yoritishni talab etadi. Ikkinci yo‘nalishda esa struktura sof shakllar va munosabatlar sifatida tushuniladi. Shakl esa konkret qo‘llanishidan uzilgan holda talqin qilinadi”.¹

Mazkur maqolamizda yon leksemasining semantik-struktur ahamiyati va qo‘llanishidagi o‘ziga xps xususiyatlarni ko‘rib o‘tamiz.

“Yon” leksemasi “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” da quyidagicha ta’riflangan.

YON1 Tananing yelkadan songacha bo‘lgan shuningdek, biror narsaning o‘ng yoki chap qismi². *Otabek o‘ng yoniga bosib ko‘rpachaga burkandi. A.Qodiriy, O’tkan kunlar. Mingboshi qo‘lini yoniga tushirdi. M.Ismoilov Farg‘ona tong otguncha.*

¹ R. Rasulov. Umumiyl tilshunoslik. Toshkent.2010.-B 196

² O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 8000dan ortiq so‘z va so‘z birikmasi.J.I.-Toshkent: O‘zME, 2006. -B.36.

Endi yon leksemasining ko‘p ma’nolilagini ko‘rib chiqamiz.

YON2 Umuman o‘ng yoki chap tomon; taraf; atrof. *Yon qo’shni. Xudoyor huzuriga kiradigan eshikning ikki yonida oybolta ko’targan ikki jallod surat kabi qotganlar.* A.Qodiriy Mehrobdan chayon.

YON 3 Yoqa, chet, qirg‘oq. Ariq yoni. *Devorning yoni bilan kelgani uchun ham Oyqiz ko‘rmay qolgan edi.* Sh. Rashidov, Bo‘rondan kuchli.

YON 4 Cho‘ntak, kissa. *Yonimda pul yo‘q. Ahmad Chalabiy oqchadan yoniga ko‘proq solib olishini tayinladi.* Mirmuhsin, Me’mor.

YON 5 Qo‘slni, o‘zaro yaqin. *Tamanno yon qishloqdagi kasalxonada ishlashi kerak.* Qumri va Tamanno³.

Alisher Navoiy ham o‘z g‘azallari va asarlarida yon leksemasidan mohirona foydalangan ijodkor. U bu so‘zga omonim sifatida qaragan va ularning izohini bergan: Va tush lafzida ham bu na’v uch ma’ni bor. Va yana yon lafzida va yoq lafzida ham bu holdur va bu na’v lafziki, anda uch ma’ni bo‘lg‘ay, had va hasrdin ko‘prak topilur⁴. Alisher Navoiy yon omonimining uch xil ma’noga ega ekanligini qayd etadi, lekin ma’nolarini keltirmagan.

Bu omonim so‘zlar hozirgi o‘zbek adabiy tilida ham ishlatiladi:

Yon I “tomon”; yon II “olovning harakati”; yon III “qaytmoq”. Faqat “qaytmoq” ma’nosidagi yon so‘zi hozirgi o‘zbek tilida qo‘llanmaydi.⁵

Yon (yoki qo‘yin, cho‘ntak) daftarcha. Cho‘ntakka solib yurishga mo‘ljallangan daftarcha. *Yon daftarchasiga nimalarnidir yozib, ko‘kka qaradi.* S.Karomatov, *Oltin qum*⁶.

Quyida yon leksemasi o‘rnida boshqa so‘zlarning qo‘llanishi kuzatiladi. *Hali ma’ruzaga aytgan kishi bilan ayol Fotimaning o‘zini, otasining ismini so‘rab, cho‘ntak daftarchasiga yozib olishdi.* T. Ashurov, Oq ot. Bir piyola qahvadan keyin mehmon o‘ziga kelib, qo‘yin daftarchasini oldi⁷.

YON leksemasi qo‘slna fe’l shaklida kelganda turli ma’nolarini keltiradi. Masalan, yon bermoq shaklidagi birikma orqali *atay yengilmoq, andisha qilmoq, rozi bo‘lmoq, kechirmoq, qo‘llamoq* kabi lisoniy va nutqiy ma’nolarini bildiradi. *Ilgari Ashurdaqalarga darrov yon berardi.* P. Qodirov, *Qadrim*⁸.

Yon bosmoq birikmasi esa *tarafini olmoq, yoqlamoq; homiylik qilmoq* ma’nolarini anglatadi. *Bir taraf sohib qoriga, ikkinchi taraf Adolatga yon bosdi.* I. Rahim Chin muhabbat.⁹

Yoniga kirmoq, Yordamlashmoq, ko‘maklashmoq; o‘sib, ulg‘ayib yordam beradigan yoshga yetmoq. Achinsang, yonimga kir, qizchalarga yordamlashaylik. *Oybek*¹⁰.

³ O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 8000dan ortiq so‘z va so‘z birikmasi.J.I.-Toshkent: O‘zME, 2006. -B.37.

⁴ Alisher Navoiy.Muhokamat ul- lug‘atayn.Toshkent: Tafakkur, 2011.B-7.

⁵ Zulxumor Xolmonova. Omonimlar tafakkur omili.Toshkent: "O‘zbekiston til va madaniyat" 1: 30-44

⁶ O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 8000dan ortiq so‘z va so‘z birikmasi.J.I.-Toshkent: O‘zME, 2006. -B.37.

⁷ Abdulla Qahhor. O‘tmishdan ertaklar.Toshkent: Yangi asr avlod, 2019-y.B-276.

⁸ O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 8000dan ortiq so‘z va so‘z birikmasi.J.I.-Toshkent: O‘zME, 2006. -B.37.

⁹ O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 8000dan ortiq so‘z va so‘z birikmasi.J.I.-Toshkent: O‘zME, 2006. -B.37.

¹⁰ O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 8000dan ortiq so‘z va so‘z birikmasi.J.I.-Toshkent: O‘zME, 2006. -B.37.

Yoniga tushmoq 1 foyda qilmoq. Mirzakarimboy soqolini selkillatib kului va bu yozuvdan rozi bo‘lganini bildirdi; “Durust. O‘n so‘lkavoy yoniga tushadiku, maqtamaydimi?” Oybek. Tanlangan asarlar.

Yoniga tushmoq 2 himoya qilmoq, tarafini olmoq. G‘idi-bidi avjiga chiqdi. Ona o‘g‘il yoniga tushdi.

“Yon” leksemasini semantik-strukturaviy jihatdan o‘rganishimiz o‘quvchilar uchun tushunarlikni oshiradi. O‘quvchilar nutqidagi kamchiliklarni bartaraf etish va leksemalarni to‘g‘ri tanlay olish, to‘g‘ri qo‘llash ko‘nikmasini oshiradi. Polemantik leksemalar o‘quvchilarning matn bilan ishlash ko‘nikmasini shakllantiradi, fikrlash doirasini kengaytirib, ularning lug‘at boyligining oshishi uchun xizmat qiladi.

REFERENCES

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 8000dan ortiq so‘z va so‘z birikmasi.J.I.-Toshkent: O‘zME, 2006.
2. Alisher Navoiy.Muhokamat ul- lug‘atayn.Toshkent: Tafakkur, 2011.
3. R. Rasulov. Umumiyl tilshunoslik. Toshkent. 2010
4. N. Shayxislomov. Tilshunoslik nazariyasi va tushunchasi. Toshkent. 2021
5. Abdulla Qahhor. O‘tmishdan ertaklar.Toshkent: Yangi asr avlod, 2019-y.
6. Zulxumor Xolmonova. Omonimlar tafakkur omili.Toshkent: "O‘zbekiston til va madaniyat" 1: 30-44